

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'l

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR

PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI 213-222

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО

ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА 223-233

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI:

NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA")..... 234-241

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdorovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR

VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL

VA TEVARAK-ATROF 242-246

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT

HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV

HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI 247-251

Temple Chimunya Odimegwa

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS

IN CONCRETE 252-265

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING

HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH

SSENARIYLARI 266-271

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING

IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI 272-277

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK

ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI 278-283

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY

FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... 284-289

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK

FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI..... 290-294

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARGA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA

UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH 295-300

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT AND LEGAL STATUS OF A FOREIGN CITIZEN IN UZBEKISTAN

Aripov Abid

Independent researcher of the Academy of the
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article comprehensively analyzes the concept of foreign citizens in the Republic of Uzbekistan and their legal status based on international legal and national legislation. The relevance of clearly defining the legal status of foreign citizens is substantiated. Also, the doctrinal views of legal scholars were studied, and the author's definition and practical proposals aimed at improving national legislation were put forward.

Keywords: foreign citizen, legal status, human rights, international law, national legislation, multiple citizenship, legal order.

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI

Aripov Abid Adilovich

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Email: abidaripov9@gmail.com

<http://www.orcid.org/0009-0004-5317-0481>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari tushunchasi va ularning huquqiy maqomi xalqaro-huquqiy hamda milliy qonunchilik asosida kompleks tahlil qilingan. Chet el fuqarolarining huquqiy maqomini aniq belgilashning dolzarbligi asoslab berilgan. Shuningdek, huquqshunos olimlarning doktrinal qarashlari o'rganilib, milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan mualliflik ta'rifi va amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: chet el fuqarosi, huquqiy maqom, inson huquqlari, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, ko'p fuqarolik, huquqiy tartib.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N23>

Kirish. Globallashuv va xalqaro migratsiya jarayonlarining kengayishi davlatlar oldida chet el fuqarolarining huquqiy maqomini aniq belgilash masalasini dolzarb vazifa sifatida qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, ushbu tamoyil chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

O'zbekistonda aholining huquqlarini ta'minlash va muhofaza qilish — mamlakatdagi huquqiy tizimning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu bilan birga, bugungi kunda jamiyatdagi huquqiy munosabatlarning murakkabligi va globallashuvning ta'siri asosida chet el fuqarolarining huquqlarini ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu masala, ayniqsa, O'zbekistonning xalqaro hamkorlik makonidagi mavqeyini o'sishida va milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ustuvor siyosatning bir qismi sifatida ahamiyatga ega. Chet el fuqarolari o'z huquqlarini amalga oshirishda, ayrim holatlarda, turli qiyinchiliklarga duch

kelishi mumkin. Ular mamlakatga kirish, yashash, ishlash va boshqa huquqiy munosabatlar bilan bog'liq holatlarda yuqori darajada qonuniy himoyani talab qilishi mumkin. O'zbekiston hududida yashovchi chet el fuqarolari huquqlarini, Konstitutsiya, xalqaro shartnomalar va mahalliy qonunlar asosi to'liq ta'minlangan. Biroq, amaliyotda ayrim hollarda ularning huquqlarini ta'minlashda muammolar va kamchiliklar yuzaga kelmoqda. Bu esa "chet el fuqarosi" tushunchasining ilmiy-huquqiy jihatdan aniq va yagona ta'rifga ega emasligi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda turli millat va millatlararo munosabatlarning shakllanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi, shuningdek, huquqiy ta'limotni targ'ib qilish va jamiyatdagi manfaatlarni muvozanatlashtirishga intilish kabi omillar chet el fuqarolarining huquqlarini muhofaza qilishning dolzarbligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Turli etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning rivojlanishi, globallashuv jarayonlari va migratsiya oqimlarining ko'payishi tufayli, xorijiy fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash milliy qonunchilik va xalqaro huquq doirasida muhim vazifaga aylanmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi o'zgarishlar, xususan, mehnat migratsiyasining ko'payishi va multimillat jamiyatning shakllanishi mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni saqlash va inson huquqlarini himoya qilishga bo'lgan talablarni kuchaytiradi.

Shu munosabat bilan, huquqiy ta'limotni keng targ'ib qilish va jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini muvozanatlashtirish, chet el fuqarolarining huquqlarini mustahkamlash hamda ularning ijtimoiy-huquqiy maqomini ta'minlash sohasida samarali mexanizmlarni yaratish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda chet el fuqarolari uchun huquqiy himoyani yanada kuchaytirish, ularning huquqlari bo'yicha ma'lumotlarni targ'ib qilish va yuridik yordam ko'rsatishni bo'yicha amaliy choralar ko'rilmogda. Buning natijasida, chet el fuqarolari O'zbekistonda o'z huquqlarini samarali ishlatish va ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

O'zbekistonda chet el fuqarolariga nisbatan va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari, ularni tergov qilishda, tergov organlarini boshqarishning tashkiliy huquqiy asoslarini keltirishimizdan avval, chet el fuqarosi kim?, uning huquq va majburiyatlar chegarasi?, bu huquqlar qanday tarixiy asosga ega?, O'zbekiston Respublikasi hududida ularning huquqiy maqomi qanday?, chet el fuqarosi va ularga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar qaysi normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan?, degan bir nechta savollarga javob bersak.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — mamlakatning asosiy huquqiy hujjati bo'lib, unda inson va fuqaro huquqlari, erkinliklari va burchlari, ularni himoya qilishning huquqiy asoslari belgilab qo'yilgan. Inson huquqlari Konstitutsiyada markaziy o'rin tutadi va davlatning birinchi maqsadi sifatida belgilangan. Konstitutsiyaning 13-moddasida: ***"O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoyalangani"***, -deb belgilab qo'yilgan [11].

Inson qadr-qimmati va huquqlari tabiiy va ajralmasdir: Konstitutsiyaning 24-moddasiga ko'ra, ***"O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq***

ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro huquq shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar”,-deb belgilab qo'yilgan [11]. Bu, o'z navbatida, insonning qimmatini tabiiy va ajralmas bo'lib, har qanday shaxs o'zining bunyodkor huquqlaridan foydalanishi va ularni himoya qilishda erkin bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari, O'zbekiston Respublikasining o'zining fuqarolariga qaraganda huquqiy munosabatlari alohida xususiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga chet elliklar bilan davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar masalasini tahlil qilishdan avval aynan **“chet ellik”** tushunchasini ko'rib chiqish lozim. Chunki dastlab chet ellik toifasiga kiruvchi shaxslar doirasi belgilab olinmasa, oldimizga qo'ygan maqsad va muammoli vaziyatni to'liq tadqiqoti va aniq yechimiga ega bo'lish mushkul vazifa hisoblanadi. Dastlab oldimizga qo'yilgan masalani tahlil qilish uchun xalqaro hujjatlarni o'rganilganda, **“chet ellik va uning huquqlari”**ni tarixiy kelib chiqishi va belgilanishiga e'tibor qaratishimiz kerak.

Birlashgan millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida [4; B.33.] birinchi navbatda har bir insonning irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar biror bir ayirmachiliksiz unda e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklar sohibi bo'lishi lozimligi bayon etgan. Ushbu talab tadqiqot ishining obyekt, ya'ni chet elliklarning huquq va erkinliklariga bevosita aloqadorligi bilan muhim o'rin egallaydi.

Mazkur deklaratsiya shaxsning siyosiy, fuqarolik madaniy huquq va erkinliklarini aks etish bilan birga uning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini, ya'ni yashash joyini tanlash, erkin harakat qilish mehnat qilish, ta'lim olish va boshqa turdagi huquqlarini ham kafolatlaydi.

Bundan tashqari, deklaratsiyada shaxs bo'lib turgan biror bir mamlakatning yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomi nuqtai — nazaridan, hamda ushbu hududning mustaqillik vasiylik ostida yoki o'zini o'zi boshqarish maqomida bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu shaxsga nisbatan ayirmachilik munosabatida bo'lish taqiqlanishi qayd etilgan.

Ushbu deklaratsiyadagi chet elliklarning huquq va majburiyatlarga oid talablarning aksariyat mamlakatimizdagi huquqiy sohalarga oid qonunlarda aks ettirilganligi bilan e'tiborga loyiqdir. O'z o'rnida chet elliklarga oid O'zbekiston Jinoyat-protsessual qonunchilikni qo'llashdagi ayrim muammolar masalasi diplom ishimizning keyingi bo'limlarida yoritilishi nazarda tutilganligi sababli, keyingi bo'limlarda alohida to'xtalib o'tamiz.

Deklaratsiyada inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanuvchi erkin harakatlanish huquqi aks ettirilgan bo'lib, unga muvofiq har bir shaxs har qanday mamlakatdan, shu jumladan o'z mamlakatidan chiqib ketish va unga qaytib kelish huquqiga ega.

Deklaratsiyadagi bu qoida chet elliklar huquqining ajralmas qismi bo'lganligi bilan ham biz uchun katta ahamiyatga ega.

Chet ellikni u fuqarosi bo'lgan davlat tomonidan himoya qilish yoki domitsiliya tamoyili biror bir davlat hududida bo'lgan chet ellik zarur bo'lganda o'zining fuqaroligi bo'lgan davlat himoyasidan foydalanish imkoniga egaligini anglatadi. Bu esa deklaratsiyaga muvofiq barcha shaxslar har qanday kamsitilishdan himoyalaniishida teng huquqlarga ega ekanliklari bilan sharhlanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan keyin qabul qilingan quyidagi xalqaro hujjatlar chet elliklarga oid xalqaro hujjatlar qatoriga kiradi. Bu “Iqtisodiy, ijtimoiy, va madaniy

huquqlar” [1; B.19-32.] hamda “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro Paktlardir [2; B.35-58.].

Mazkur xalqaro hujjatlar ularda inson huquq va erkinliklariga oid o‘rnatilgan talablarning xalqaro miqyosda ta‘minlanishi belgilanganligi bilan tadqiqot ishiga bog‘liq masalalarni hal qilishga katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, 1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan bo‘lib, u 1995-yil 31-avgustda O‘zbekiston Parlamenti tomonidan imzolangan.

Ushbu Paktda shaxslar, shu jumladan chet elliklarning huquqiy holatiga oid talab va qoidalarining umumiy tizimi keltirilgan (2-modda). Unga muvofiq chet elliklar bo‘lib turgan mamlakatning fuqarolari bilan bir qatorda mehnat qilish va erkin kasb tanlash mehnati uchun adolatli ish haqi olish huquqiga egadirlar. Paktning mazkur moddasida, shuningdek chet elliklarning ijtimoiy ta‘minotga, yetarli turmush darajasini va sog‘liqni saqlash huquqlariga ega bo‘lishi to‘g‘risidagi qoidalar ham e‘tirof etilgan.

“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi Xalqaro Pakt [3; B.201-205.] ham 1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlardan biridir. Mazkur Pakt hamda uning fakultativ Protokoli ham O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1995-yilning 31-avgustida imzolangan.

Ushbu Paktning 2-moddasiga muvofiq, ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar o‘zining yurisdiksiyasida bo‘lgan shaxslarning hech qanday ayirmachilik qilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. Bu bilan shuni anglashimiz mumkinki chet el fuqarolari ham ushbu Paktga a‘zo bo‘lgan davlatning huquq doirasida bo‘lgan taqdirda unga nisbatan ishga qabul qilishda ham kamsitilishi mumkin emasligini anglashimiz mumkin.

Har bir kishi qayerda turishidan qat‘iy nazar uning shaxsiy huquqi tan olinishi huquqiga ega. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar zimmasiga unda tan olingan huquqlarni amalga oshirish borasida o‘zlari qabul qilgan tadbirlar va mazkur huquqlardan foydalanishda erishilgan o‘zgarishlar haqida BMTga ma‘ruzalar taqdim etish talabi yuklagan.

Mazkur Deklaratsiya muqaddimasida shaxsning irqi, jinsi, tili va dinidan qat‘i nazar uning huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hamda rioya etilishini BMT har tomonlama rag‘batlantirishi ko‘rsatib o‘tilgan.

“Chet ellik” iborasi Deklaratsiyaning 1-moddasida ilk bor qo‘llanilgan bo‘lib, unga muvofiq, deklaratsiya moddalarni zarur darajada hisobga olgan holda, belgilangan davlat hududida bo‘lgan va uning fuqaroligiga ega bo‘lmagan har qanday shaxs **“Chet ellik”** ma‘nosini anglatishi qayd etilgan.

Mazkur Deklaratsiyada, shuningdek biror bir chet ellikning qonunga zid tarzda biror bir davlat hududiga kirib kelishi yoki unda bo‘lib turishi uchun Deklaratsiya qoidalar va talablari asos bo‘la olmasligi talabi o‘rnatilgan. Shu o‘rinda mazkur Deklaratsiyaning biror bir qoidasi unga a‘zo bo‘lgan davlatning chet elliklarning ushbu davlat hududiga kirib kelishi yoki bo‘lib turishi masalasi bo‘yicha qonun va qoidalar qabul qilishlarida cheklanish sifatida talqin etilishish yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi qoida o‘rnatilgan.

Ushbu Deklaratsiyada, ichki qonun va xalqaro huquq asosida chet elliklarga davlatlar taqdim etadigan huquqlarga, hatto ular mazkur Deklaratsiyada tan olinmagan yoki kam hajmda tan olingan bo‘lsa-da, zarar yetkazmaslik lozimligi qayd etilgan.

Deklaratsiya unga a'zo bo'lgan har bir davlat o'zining chet elliklarga oid milliy qonun hujjatlarini yoki qoidalarini matbuotda e'lon qilishi zarurligi talabini ham o'zida mujassamlashtirgan.

O'z navbatida Deklaratsiya chet elliklarni yashab turgan yoki bo'lib turgan davlatning qonunlariga rioya etish hamda mazkur davlat xalqlarining urf- odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish talabini qo'ygan. Deklaratsiyada chet elliklar bo'lib turgan davlatlari hududidan faqat qonun asosidagi qarorga muvofiq chiqarilishi yoki chiqarib yuborilishi mumkinligi to'g'risidagi qoida o'rnatilgan. Unga muvofiq agar mazkur qarorda davlat xavfsizligi imperativ nuqtai nazardan boshqacha talab o'rnatilmagan bo'lsa, u holda chet ellikka o'zining chiqarib yuborilishiga qarshi asoslarni taqdim etish huquqi berilgan. Bundan tashqari chet ellikka vakolatli davlat organlariga unga nisbatan chiqarilgan qarorlarni tegishli davlat idoralarida qayta ko'rib chiqishni talab etish huquqi ham taqdim etilgan. Deklaratsiyaning mazkur moddasida, shuningdek chet elliklarni irqi, terisining rangi, dini, madaniyati va etnik kelib chiqishiga ko'ra individual yoki jamoatchilik tarzida chiqarib yuborish taqiqlangan.

Huquqshunos olimlarning fikrlarini o'rganilganda, yuqorida keltirilgan tavsif **“Chet ellik”** iborasiga nisbatan turli xil, ya'ni tor va keng ma'nodagi tavsif qo'llanilishi to'g'risidagi mulohazalar ilgari surilganligini aniqlashimiz mumkin [6; B.120.].

Hamma insonlarning umumiy jihatdan **“chet elliklar”** deyilganda, boshqa davlat hududida doimiy ravishda istiqomat qiladigan shaxslar va boshqa davlatdan kelgan fuqarolarni tushunishimiz sir emas. Ushbu fikrimiz qisman to'g'ri bo'lsa-da, lekin ushbu tushuncha quyilgan masalaning yuridik mazmunini batafsil ochib bera olmaydi.

Shu boisdan ham ushbu tushuncha o'zining to'liq mantiqiy yechimiga ega bo'lishi uchun uni xalqaro huquqiy va milliy qonunlar doirasida chuqurroq tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Huquqshunos olim A. Mamatqulov **“chet ellik”** iborasiga tasnif berishda, *“chet ellik deganda muayyan davlat hududida yashaydigan, lekin uning fuqarosi bo'lmagan va boshqa davlat fuqaroligida turgan shaxs”* anglanishini qayd etgan [5; B.98.]. Huquqshunos olim R. Qayumov *“O'zbekiston fuqarosi bo'lmagan va o'zining chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlovchi dalillari bo'lgan shaxslar “chet ellik fuqarolar” deb tan olinishini”*, - e'tirof etgan [8; B.129.]. Huquqshunos olim R.Hakimov esa *“bo'lib turgan mamlakati fuqaroligiga ega bo'lmagan har qanday shaxs chet ellik”*, - deb tushunilishini qayd etgan [10; B.56-58.].

Huquqshunos olim X.T. Odilqoriyevning fikricha *“o'zi yashab turgan davlatning fuqaroligiga ega bo'lmagan va boshqa davlatning fuqaroligida bo'lgan shaxsni chet ellik deb e'tirof etiladi”* [7; B.152.] deb fikr bildirganlar.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar **“chet ellik”** tushunchasi ma'lum davlat hududida bo'lib turgan va mazkur davlat fuqaroligiga ega bo'lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga ega shaxslarni anglashligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi kabi mustaqil davlatlarning aksariyatida fuqarolik masalalariga oid qonunlar qabul qilingan. Ushbu davlatlarning ko'p qismida fuqarolik masalasini tartibga solishning asosi tariqasida *“tenglik tamoyil”* deb nomlanuvchi mezon olingan. Unga muvofiq tegishli davlatning fuqaroligi mazkur davlatning fuqarolik to'g'risidagi qonuni kuchga kirguniga qadar uning hududida yashab turgan barcha shaxslar havola etilishi ko'zda tutilgan [9; B.47.].

Bir qator davlatlarning qonunlarida davlat o'z hududida istiqomat qiladigan chet fuqarolarini himoya qilish majburiyatini olishi yuzasidan qarama-qarshi fikrlar mavjud.

Chet elliklar huquqiy tartibining quyidagi uch ko‘rinishi eng ko‘p tarqalgan: **milliy, eng qulay va maxsus** tartiblar mavjud.

Milliy tartib chet elliklarga davlatning fuqarolari bilan teng huquq va erkinliklar berilishini nazarda tutadi.

Eng qulay tartib-chet elliklarga har qanday uchinchi davlat fuqarolari foydalanayotgan yoki foydalanadigan huquq va erkinliklarning berilishidir. Bu tartibning tabiati faqat shartnomaviydir.

Chet elliklarning milliy qonunchilik yoki xalqaro shartnoma asosida maxsus huquqlarini berishni nazarda tutuvchi **maxsus** tartib kabi chet elliklarning huquqiy tartibi ko‘rinishi ham mavjud. Bu tartib chet elliklarga ma‘lum bir imtiyoz va ustunliklarni berishni nazarda tutishi bilan ajralib turadi [7; B.154.].

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining huquq va erkinliklari davlatlar o‘rtasida va xalqaro tashkilotlar tomonidan chiqarilgan xalqaro hujjatlar bilan tartibga solinishi haqida Konstitutsiyamizning Muqaddimasida “xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan holda” qabul qilinganligi belgilan qo‘yilgan. Bundan tashqari Konstitutsiyaning 15-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi siyosatiga oid tamoyillari to‘g‘risida”gi Qonunida ham O‘zbekiston uchun xalqaro huquq qoidalari va tamoyillarining ustuvorligini tan olingan [11].

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomaga qat’i rioya qilishi Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilishi biz xalqaro shartnomalarga qat’iy rioya qilishimiz kerakligini bildiradi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risidagi qonunining 27-moddasida ham xalqaro O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquq normalariga muvofiq qat’iy va majburiy ravishda rioya etmog‘i lozimligini belgilab qo‘yilgan [14].

Xalqaro shartnomalar tushunchasi va ularning tasniflanishiga mutaxassislar **G.A.Matkarimova, G.Yuldashevalar** ancha batafsil to‘xtalib o‘tishgan. Jumladan, **G.A.Matkarimov**aning qayd etishicha, *“xalqaro shartnoma – bu davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari o‘rtasidagi ma‘lum bir masalalarni tartibga solish maqsadida o‘zaro kelishuv tartibida yozma shaklda tuziladigan xalqaro huquqiy hujjat”* hisoblanadi [14; B.221.].

Konstitutsiyamizning yuqorida ko‘rsatilib o‘tilgan qoidalaridan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari ularning huquqiy holatini tartibga solishda xalqaro hujjatlar va xalqaro qoidalar asosida hal etilishini ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to‘g‘risidagi qonunida xalqaro shartnomalarining tushunchasi berilgan bo‘lib unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi — respublikaning bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvi [12].

Demak yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, chet el fuqarolarini huquqiy holatini tartibga soladigan xalqaro hujjatlar hozirda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ushbu xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan xalqaro hujjatlarni qonun hujjatlarida berilgan tartibda ratifikatsiya qilmasak biz uchun majburiy ahamiyatga ega emas.

Inson qayerda tug‘ilishidan qat’iy nazar, har qanday davlatga ko‘chib borib, u yerda yashab shaxsiy huquq va erkinliklaridan foydalanishi mumkin hisoblanadi. Albatta, ko‘chib borishlar ham qonuniy yo‘l bilan amalga oshirilsagina uning huquqlari himoya qilinishi mumkin. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt”ning 13-moddasida esa

ushbu Paktda ishtirok etayotgan davlatlar qonuniy yo'l bilan yashayotgan chet el fuqarosini faqatgina qonunga muvofiq chiqarilgan qaror ijro etilishi bilangina davlatdan chiqarilib yuborilishi mumkin. Ammo chet el fuqarosi chiqarib yuborilishiga qarshi dalillar taqdim etish va shu maqsadda ayni tegishli hokimiyat tomonidan maxsus tayinlangan shaxs yoki shaxslar qayta ko'rib chiqishi hamda ushbu maqsadda ayni hokimiyat, shaxs yoki shaxslar huzuriga kirish huquqiga ega ekanligini belgilab qo'yilgan.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 6-moddasida "Har bir inson qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'zining huquqli subyekt sifatida tan olinishiga haqli" deb ko'rsatilgan. Bundan tashqari "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt"ning 16-moddasida shunday norma mavjud bo'lib, uning asosiy ma'nosi shaxs qayerda bo'lishidan qat'iy nazar jismoniy shaxsning huquq va erkinliklari davlatlar tomonidan ta'minlanishi kerak hisoblanadi. Ya'ni chet el fuqarosi davlatga kirib kelganda (qonuniy yo'l bilan) uning barcha huquq va erkinliklari kirib borgan davlat tomonidan chet el fuqarosini huquqlarini ta'minlab berishi kerak.

Huquqshunos olim X.T.Odilqoriyev ta'kidlashicha, chet elliklarning huquqiy maqomi ularning o'zlari yashab turgan davlatdagi shu davlatning inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquq normalarini inobatga olgan holda kafolatlangan huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari yig'indisi kiradi [7; B.152.] — deb aytib o'tgan.

Muhokama. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida Qonuniga asosan; "**chet el fuqarosi**" — O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo'lmagan, boshqa davlat fuqaroligiga va o'zining boshqa davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo'lgan shaxs [13], — deb tarif berilgan.

Ushbu prinsip orqali chet el fuqarosi o'zining fuqaroligiga mansub bo'lgan davlatning himoyalaniish imkoniga egaligini yoki domisiliyani bildiradi. Ya'ni chet el fuqarosining buzilgan huquqlarini himoya qilish uchun, davlat uning nomidan huquqlarini himoya qilish maqsadida xalqaro normalar orqali uning huquqlarini ta'minlab beradi. Jahondagi ayrim davlatlar o'z qonunchiligida ko'p fuqarolikni cheklovsiz tan oladi va o'z fuqarolariga cheklovsiz ko'p fuqarolikka ega bo'lish huquqini taqdim etish orqali inson huquqlari va beqiyos harakatlanish erkinligini kengaytirishga intiladi.

Xususan, **Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Shvetsiya, Avstraliya, Braziliya va Argentina** kabi mamlakatlarda fuqarolik masalasida erkinlik prinsipi ustuvor ahamiyat kasb etadi [15]. Bu davlatlarda fuqaro yangi fuqarolik qabul qilganini davlat organlariga xabar qilish majburiyatiga ega emas va qonunchilikda bir shaxsning **to'rt yoki undan ortiq** fuqarolikka ega bo'lishiga hech qanday huquqiy to'siqlar mavjud emas.

Bu huquqiy holat xalqaro huquq va milliy qonunchilik darajasida katta ahamiyatga ega bo'lib, chet el fuqarosining huquqiy maqomini belgilashda bir qator muhim muammolarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, ko'p fuqarolik holatida shaxs qaysi davlat fuqarosi sifatida huquq va majburiyatlarga ega ekanligiga doir muammolar paydo bo'ladi. Masalan, turli davlatlarda bir shaxsning fuqarolikka doir huquqiy maqomi turlicha talqin qilinishi mumkin, bu esa uning xalqaro munosabatlardagi maqomini aniqlashda murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ko'p fuqarolik holatida diplomatik himoya va konsullik yordami masalalari yanada murakkablashadi. Xalqaro huquqda davlat faqat o'z fuqarosini himoya qilish huquqiga ega bo'ladi, ammo agar shaxs bir necha davlat fuqaroligiga ega bo'lsa, qaysi davlat

uning manfaatlarini himoya qiladi, degan savol tug'iladi. Bu masala "siyosiy fuqarolik" tamoyili va fuqaroning davlat bilan o'zidagi real bog'lanishini aniqlash talab qiladi.

Uchinchidan, ko'p fuqarolik insonning shaxsiy erkinligini kengaytirish va globallashtirish sharoitida harakatchanlik imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro mehnat migratsiyasi, ta'lim, tadqiqot va iqtisodiy faoliyatda ko'p fuqarolik shaxslarga keng imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida, milliy va xalqaro qonunchilikni muvofiqlashtirish, fuqarolik tushunchasini qayta ko'rib chiqish va yangi huquqiy mexanizmlar yaratish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Natijalar. Yuqorida yuridik adabiyotlar, xalqaro-huquqiy aktlar va chet el fuqarolarining huquqiy maqomini o'rganish bilan bog'liq chet el va milliy qonunchiligimizni o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi lozim hisobladik:

- 1) shaxsning "huquqiy maqomi" deganda, avvalambor, ularning barcha huquq va majburiyatlari tushunilishi;
- 2) chet el fuqarosi deb, xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tan olingan davlatning fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs tushunilishi lozimligi;
- 3) chet elliklar deb O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy va vaqtincha yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini dalil sifatida taqdim qiluvchi asosi bo'lmagan boshqa davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushunilishi;
- 4) O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lib turgan bir yoki bir nechta boshqa davlatlar fuqarolari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ega bo'lgan huquq va erkinliklarga egaligidir, ularga milliy qonunchilik tatbiq qilinishi.

Biz bilamizki chet el fuqarolari boshqa davlatda bo'lib turganida, uning huquqlari biron bir davlatning yurisdiksiyasida asossiz poymol qilinsa, shu davlat uchun ham xalqaro hujjatda berilgan prinsip va normalarni buzilishiga olib kelishi mumkin.

Chet elliklarning huquqiy maqomi deganda, chet el fuqarolarini uning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularga berilgan ustuvorlik va imtiyozlarning ta'minlashi, davlatning huquqiy makonida yashayotgan chet el fuqarolarini to'liq huquqini ta'minlab berishi kerakligi nazarda tutiladi, shu bilan bir qatorda ularning javobgarligi ham xuddi shu tartibda amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Chet el fuqarolari davlatlarning qonun hujjatlariga amal qilishi kerak ekanligi, ularning an'analarini hurmat qilishi va boshqa majburiyatlarni bajarishga majburligi inobatga olingan.

Xulosa. Chet el fuqarolarining huquqiy maqomi — bu zamonaviy xalqaro va milliy huquq tizimlarida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy-huquqiy tushuncha bo'lib, u chet el fuqarolarining huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, ularga berilgan imtiyozlar hamda ustuvorliklarni ta'minlash bilan bir qatorda, ularning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro huquq shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etish imkoniyatlarini to'liq ta'minlash hamda javobgarlikka tortilishi bilan bir qatorda ijtimoiy majburiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida "Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi Qonunida belgilangan chet el fuqarosi tushunchasiga qo'yidagicha o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: ***"Chet el fuqarosi — O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga ega bo'lmagan, bir yoki bir nechta boshqa davlatlar fuqaroligiga mansubligi va tegishli huquqiy hujjatlarga ega bo'lgan taqdirda, o'z xohishi bilan bir davlat mansubligiga doir dalilni taqdim qilgan shaxs"***. Bu ta'rif chet el fuqarolarining huquqiy maqomini aniq belgilashda

muhim ahamiyat kasb etadi va huquqiy munosabatlarni to'g'ri tartibga solishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Zero, chet el fuqarolarining davlat qonun hujjatlariga rioya etishi va milliy an'analarni hurmat qilishi ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi hamda huquqiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sanaladi. Shu tariqa, chet el fuqarolarining huquqiy maqomini to'liq va mukammal tartibga solish inson huquqlarini himoya qilish, huquqiy barqarorlikni ta'minlash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1966 йил 16 дек. қабул қилинган «Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисида»ги халқаро Пакт // А.Х. Саидов. Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. Т., 1995. – С.19-32;
2. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1966 йил 19 дек. қабул қилинган «Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида»ги халқаро пакт // А.Х. Саидов. Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. Т., 1995. – С.33-58
3. БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1985 йил 13 декабрда қабул қилинган «Яшаб турган мамлакат фуқаролигига эга бўлмаган шахсларга оид инсон ҳуқуқлари Декларация»си // А.Х.Саидов. Права человека. Т.1.-Т., 1995.- С.201 – 205
4. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар / Масъул муҳаррир А.Х.Саидов .-Т.,2022. Б-33
5. Маматқулов А. Халқаро ҳуқуқ – Т.: Адолат, 1997. Б.98
6. Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Е. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи: Дарслик.- Т.: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия ун-ти, 2000. – Б 120
7. Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Е. Халқаро оммавий ҳуқуқ: Олий ўқув юртлари учун Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик институти.- Т.: Адолат, 2007. – Б 152
8. Қаямов Р.Қ. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи: Дарслик . – Т.: ИИВ Акад., 1997. –Б 129
9. Самиев И.В. Халқаро ва миллий меъёрлар бўйича чет элликларнинг ҳуқуқий ҳолати: миллий ва хорижий тажриба Диссертация Т.: - 2005 Б.47
10. Тузмухамедов Р.А., Хакимов РТ. Основы международного права – Т.: Мир экономики и права, 1998.-Б.56-58.
11. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // URL: <https://lex.uz/docs/6445145>
12. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида” ги Қонуни. // URL: <https://lex.uz/docs/4193761>
13. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида чет эл фуқароларининг ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг ҳуқуқий ҳолати тўғрисида” Қонуни // URL: <https://lex.uz/docs/5443899>
14. Юлдашева Г. Халқаро ҳуқуқ. Дарслик. -Т.: ТДЮИ, 2006 й. 221 б.
15. <https://companies.rbc.ru/news/BqqhnEpsEM/v-kakih-stranah-vozmzhno-dvojnoe-grazhdanstvo-obzor-2025-goda/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).